

**BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINIF
O‘QITUVCHILARINING O‘QUVCHILAR O‘QISH
SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISHGA
METODIK TAYYORLASHNING O‘ZIGA XOS
XUSUSIYATLARI**

*Doniyarov Mavlonbek Arabovich, Jizzax davlat pedagogika
universiteti “Boshlang‘ich ta’lim metodikasi” kafedrasini
o‘qituvchisi*

**ОСОБЕННОСТИ МЕТОДИЧЕСКОЙ
ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ
НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ РАЗВИТИИ
ЧИТАТЕЛЬСКОЙ ГРАМОТНОСТИ УЧАЩИХСЯ**

*Данияров Мавлонбек Арабович, преподаватель кафедры
методики начального образования Джизакского
государственного педагогического университета*

**DISTINCTIVE FEATURES OF THE
METHODOLOGICAL PREPARATION OF FUTURE
PRIMARY SCHOOL TEACHERS FOR THE
DEVELOPMENT OF READING LITERACY OF
STUDENTS**

*Doniyarov Mavlonbek Arabovich, Teacher of the Department of
methodology of Primary Education, Jizzakh State Pedagogical
University*

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining o‘quvchilar o‘qish savodxonligini rivojlantirishga metodik tayyorlashning o‘ziga xos xususiyatlari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari, tafakkur jarayoni, ona tili, o‘qish savodxonligi, innovatsion ta’lim, novator.

Abstract: This article reflects on the peculiarities of methodological preparation of future primary school teachers for the development of reading literacy of students.

Key words: future primary school teachers, primary school students, thought process, native language, Reading Literacy, innovative education, innovator.

Аннотация: В данной статье рассматриваются особенности методической подготовки будущих учителей начальных классов к развитию читательской грамотности учащихся.

Ключевые слова: будущие учителя начальных классов, ученики младших классов, мыслительный процесс, родной язык, сводность чтения, инновационное образование, новаторство.



<https://orcid.org/0000-0003-1316-6985>

e-mail:
doniyarovmavlonbek84@gmail.com

KIRISH. O‘zbekiston Respublikasida uzluksiz ta‘lim tizimini takomillashtirish, ta‘lim sifatini yaxshilash va samaradorligini ta‘minlashda moddiy omillar bilan bir qatorda bo‘ljak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining o‘quvchilar o‘qish savodxonligini rivojlantirishga metodik tayyorlash pedagogik muammo sifatida darajasi va salohiyati jihatidan ham muhim ahamiyatga ega.

Tafakkur jarayoni insonning ruhiyati bilan uzviy bog‘liqlikda kechadi. Fikrlayotgan odamning ichki dunyosi qanchalik boy, dunyoqarashi nechog‘lik keng, bilimi qay darajada chuqur bo‘lsa, fikrlari, xulosalarining saviyasi ham shuncha baland bo‘ladi. Teranlik, tiniqlik, mantiq, erkinlik, mustaqillik, badiiylik, ijodiylik inson tafakkuri darajasini ko‘rsatuvchi ijobiy xususiyatlardir. Odam dunyoni tafakkur orqali anglaydi, fikr va ruhiyat yordamida undan o‘ziga xos tarzda ta’sirlanadi, xulosalar chiqaradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA. Talabalar juda katta maqsadlar bilan oliy dargohga kelishadi. Har bir talaba botinan o‘zidagi bitmas-tuganmas manbalarni ochib beradigan ustozni izlaydi. O‘zlaridagi noyob istaklarni qanday ro‘yobga chiqarishni, qanday oshkor qilishni bilmasliklari, o‘zlari muhtoj narsalarga erisholmaganliklaridan so‘ng oldingilarning bosgan izini, eski tendensiyani ta‘lim jarayoni deb qabul qilishga majbur bo‘ladilar. Bu jarayon kunni mazmunli o‘tkazish, belgilangan tartib-qoidalarni bajarishga urinish, imkoni boricha yaxshi ko‘rinish, boshqalarni, ayniqsa, ustozlarning aytganini qilish kabi motivlar asosida davom etaveradi.

Oliy ta‘lim muassasasida ta‘lim berayotgan o‘qituvchilar shunchaki ma‘lumotlar bazasini yetkazish bilan shug‘ullanishlari shart emas, ular talabani ichki imkoniyatini ochish, ularni yangidan yangi loyihalar qilishga yo‘naltirish, o‘ziga bo‘lgan ishonchni, imkoniyatni paydo qilib bera olish vazifasini bajarishi kerak[1].

Shunday ekan, bugungi kunda oliy ta‘limda dars berayotgan o‘qituvchi quyidagi talablarga javob berishi shart:

1. Oliy ta‘limda o‘tilayotgan darslar ma‘lumot berish bilan cheklanmasdan talabani ichki imkoniyatlarini ochishga, loyihalar qilish, o‘z sohasi bo‘yicha yangilik kiritishga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak.

2. Har bir darsning asosi kreativlikka, tanqidiy tafakkurni shakllantirishga qaratilgan bo‘lishi kerak. O‘tilayotgan mavzu biror maqola, tezis, kichik yangilik mundarijasini yaratishga yo‘naltirilishi, yangiliklar, izlanishlar samaradorligiga erishilishga qaratilishi lozim. Barcha talaba ham birdek maqola yozolmasligi, yangilik yaratolmasligi mumkin, eng muhimi, harakat qilish o‘z samarasini beradi. Bu jarayon oliy ta‘limning eng muhim bilim berish metodi bo‘lishi kerak.

3. Oliy ta‘limda har bir darsda o‘tilayotgan mavzuga oid biror yangilik, kashfiyot bo‘lmas ekan bu darsni samarali dars deb hisoblash mumkin emas. Har bir darsda mavzuga oid hech bo‘lmaganda bitta yangi narsa anglanishi kerak. Masalan, adabiyot darsida ijodkorning qachon tug‘ilib qayerda o‘qigani, qaysi asarni qachon yozgani haqida ma‘lumotlar birinchi planga chiqmasligi, balki yozgan asaridagi bitta foydali hikmat, hayot uchun qadrli qonuniyat anglanishi va kashf etilishi lozim.

Iqtisodiyot darslarida bank ishlari, kredit berish bilan bog‘liq ma‘lumotlar o‘rniga bugungi kunda ushbu tizimni aynan mamalakatimizda qanday to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilishi va rivojlantirish masalalari muammo tarzida o‘rganilishi hamda hayotiy yechimi topilishi, amaliyotga joriylanishi tahlil etilishi kerak.

Ekologiya fanida atrof-muhit muammolari talabalar tashabbusi asosida o‘rganilishi, darsda yechimi hal etilishi, lozim topilsa, xalqaro grantlarni shu muammolarga yo‘naltirish, yangidan-yangi sermahsul variantlar o‘ylab topilishi lozim.

Mana shu topilgan yangiliklar, topilmalar natijasigina dars qiymatini belgilab beradi. Oliy ta‘limdagi dars mana shunday tashkil etilsagina uni samarali dars deb baholash mumkin. Oddiy qilib tushuntirganda dars jarayoni hayotdagi muammolarning asl yechimi uchun xizmat qilmas

ekan, bu jarayonni oliy ta'limda o'tilayotgan dars deb hisoblash mumkin emas.

Oliy ta'limdagi aksariyat o'qituvchi va talabalar oldindan mavjud bilimlarni qayta ko'rib chiqish, nari borsa tahlil qilish, o'rgatish ishlari bilan o'ralashib qolishgan. Ayni paytda bulardan butunlay voz kechib, yangi yondashuvlarga amal qilish fursati yetdi.

Tadqiqotlardan ma'lumki, qoida va jummalarni shunchaki yodlab olish, yoki xotirada mavjud jumla va gaplarni talaffuzda takrorlash fikrlash emas. Fikrlash o'rganilayotgan narsa va hodisalarni hayot bilan bog'lash, uning hayot uchun zaruriy qiymatini belgilay olish, har bir narsa va hodisaning asl mazmun-mohiyatiga kirib bora olishdir.

Pedagogik faoliyatda avval ta'lim jarayonida ma'lum bo'lmagan ma'lumotlarni kiritish orqali ta'lim-tarbiyaning nazariy va amaliy jihatlarini boyitib borish va uni rivojlantirish pedagogik yangilik hisoblanadi. Bundan ko'rish mumkinki, innovatsion jarayon yangilikning kiritilishi va shart-sharoitlari, tizimning yangi ko'rsatkichlarga muvaffaqiyatli o'tishini ta'minlovchi o'zgarishdir [2].

MUHOKAMA. Demak, innovatsiya innovatsion o'zgarishlarga tayyorgarlik ko'rish va uni amaliyotga kiritish jarayoni hisoblanadi. O'qituvchi innovatsion faoliyatining eng muhim va markaziy masalasi o'quv jarayonini va dars mashg'ulotlarini sifatli va samarali tashkil etishdan iborat. Bu faoliyat shaxsan o'qituvchining o'zigagina bog'liq emas, bunda, bir qator shaxslar, guruhlar kengroq qamrovda ham bo'lishi mumkin.

Innovatsion ta'lim tizimi hozirgi davrda ta'lim sohasining barcha bo'g'inlarida mutaxassislarining e'tiboriga tushib jadal rivojlanib borayotgan bilimlar tizimidir. Uning ta'limiy ahamiyatini anglagan pedagoglar an'anaviy ta'limda ilg'or innovatsiyalardan foydalangan holda ta'limni tashkillashtirib bormoqda. Innovatsiyaning asosiy va bosh tushunchalari sifatida yangilik, g'oya, vosita va yangi metodlarni olish mumkin[3].

Avvalo yangilikni topish, uni uzatish, undan foydalanish hamda aniq maqsadga yo'naltirish bilan odamlar ehtiyojini zamonaviy vositalar bilan ta'minlash mumkin. Albatta, bu kabi yangiliklar sifatning ijobiy tomonga o'zgarishiga olib keladi.

Yuqoridagi fikrlardan ayonki, pedagogik jarayonda samaradorlikni ta'minlash, ta'lim tizimining jamiyat oldida hayotiy talablarga javob berishini ko'rsatadi. Sarflangan mablag' va energiyadan sifatli va yuqori natija olish innovatsiyaning asosiy maqsadi hisoblanadi. Pedagogik jamoada, ta'lim muassasasida samimiy va do'stona sharoitlar yaratilgan bo'lsa har qanday pedagog o'zini mustaqil va erkin his qiladi. Bunday muhitda o'qituvchi ijodiy fikr egasi va tayyor novatorga aylanadi.

Novator – yangilikni qabul qilish va amalga oshirishga tayyor shaxs. U shaxsiy pedagogik amaliyotida har doim yangilikka intiladi, izlanadi, o'rganadi, o'zlashtiradi va amaliyotda qo'llaydi. Novatorlar yangiliklardan yaxshi xabardor va ular bilan kommunikativ muloqot o'rnatadi. O'quv jarayonining taraqqiyoti va rivojlanishi uchun yangiliklarni loyihalaydi, qayta ishlaydi hamda zarur hollarda izlab topadi va tanlaydi[4].

Zamonaviy axborot texnologiyalari, kompyuterlashtirish va kompyuter tarmoqlari negizida ta'lim jarayonini axborot bilan ta'minlash rivojlanib boradi. Natijada o'quv faoliyat jarayoni ham yangilikka muhtoj bo'lib qoldi. Bu holatdan chiqish uchun darslarni innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etish, o'qituvchining bu faoliyatga tayyorlik darajasini oshirish hozirgi kunning dolzarb masalalaridan biri sanaladi.

NATIJA. Boshlang'ich ta'lim o'quv jarayonida, jumladan, taraqqiylashgan, innovatsion talablarga javob bera oladigan darslarda talabalarni amaliyot orqali nazariy fikrlash, idrok etish jarayoniga tayyorlash bir muncha yengilroq. Bunday o'quv tizimini talabaga tegishli qiziqish uyg'otmasdan amalga oshirish mumkin emas, albatta. Shuning uchun asosiy vazifalardan biri auditoriyada innovatsiyalashgan o'quv jarayonini amalga oshirish uchun har bir talabada shu o'quv tizimiga qiziqish uyg'otish lozim[5].

Agar talaba o'z oldiga qo'yilgan vazifani bajarishdan maqsad nimaligini anglamasa, o'z imkoniyatlaridan to'laqonli foydalana olmaydi va namoyon qilolmaydi. Tavsiya etilgan mavzuning talaba istaklari bilan mos kelmasligi dars jarayonida katta qiyinchiliklar tug'diradi. Ba'zida o'qituvchilar olib borayotgan mashg'ulotlarida dasturda berilgan mavzularni talabalarda boshlang'ich istak asoslariga mos ravishda amalga oshirishda qiyinchiliklarga

uchraydilar. Agar to'g'ri qo'llansa innovatsion texnologiyalar bu jarayonda zaruriy ko'makchi vazifasini o'taydi.

Shu vaqtgacha ona tili o'qitish metodikasi darslarida matn bilan ishlash bo'yicha topshiriqlarda matn mazmunini to'liq ochish nazarda tutilmagan. Ona tili darslarida matn odatda ma'lum til qoidasining ifodalanishini topish maqsadida berilgan, adabiyot darslarida esa matnda ifodalangan badiiy jihatlariga birmuncha ko'proq e'tibor qaratilgan. Kommunikativ yondashuv asosidagi topshiriqlar matnning mazmunini anglashga yo'naltiriladi, so'zlar va gaplar ana shu mazmunni ifodalashda qanday vazifani bajarayotganiga e'tibor qaratiladi. Tadqiqotlar ko'rsatishicha, inson tilni ma'lum konstruksiyalar asosida o'zlashtirib boradi va ana shu konstruksiyalarni qo'llagan holda o'z fikrini ifoda etadi. Tilni fonetika, morfologiya, leksikologiya, sintaksis kabi sathlarga ajratib, ketma-ketlikda hamda grammatik chiziqli tartibda o'rgatish hech qachon bu jarayonga yordam bera olmaydi.

XULOSA. Inson so'zlar, o'qir, eshitar hamda yozar ekan, tilning barcha sathlaridan birdaniga foydalanadi. Ya'ni tilni sathlarga ajratish bu tilshunoslik jihatidan ma'qul ish bo'lib, til o'qitishda ana shu sathlarni chiziqli ketma-ketlikka terib olib o'rgatish samarasiz hisoblanadi. Umuman, til o'zlashtirish ketma-ketligiga nazar tashlasak, inson birinchi til – ona tilini ma'lum qonun-qoidalar asosida emas, jamiyatdan, kitoblardan, ertaklardan, multfilm va kinolardan qabul qilish orqali o'zlashtiradi, ya'ni bola juda kichik yoshidan boshlab biz "grammatika" deb ataydigan qoidalarni boshqalarning nutqidan o'rganib oladi.

Shuningdek, o'z ehtiyojidan kelib chiqib ishlatadi ham. Istalgan birinchi sinf o'quvchisiga biror nimani ko'rsatib, bu narsa kimga tegishli ekanini so'rang, u "meniki", "uniki", "falonchiniki"

yoki "meningm", "uningi/si", "falonchiningi/si" kabi konstruksiyalarni qo'llab javob beradi. Endi mantiqan qaraymiz, axir u bunday qiyin konstruksiyani qayerdan bilib oldi, hali darslarda bunga kelmadik-ku?! U bularning hammasini nutqiy vaziyatlardan o'rganib olgan. Ona tili va o'qish savodxonligi darsligi ushbu avvaldan mavjud bilimlarni mustahkamlash va ba'zi to'g'rilashlarni kiritishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ismoilova Z. Zamonaviy o'qituvchining pedagogik mahorati va pedagogik texnikasini oshirishda boshqaruv san'atidan foydalanish. //Oliy ta'lim jurnali, 7-son. 2020 y. 92 - b.
2. Xoliqov A. Pedagogik mahorat. O'quv qo'llanma. – T.: Iqtisod-moliya. 2010. B. 312.
3. Sharipov Sh.S. Boshlang'ich ta'limda integratsiyaviy-innovatsion yondashuvlar. O'zbekiston Respublikasi miqyosida 2019-yil 6-mayda o'tkazilgan respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. 2-qism. – T.: 2019. B. 290.)
4. Xoliqov A. Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik mahoratini rivojlantirish: ped. fan. dok. diss. avtoreferati. – T.: 2018. B. 52 b.
5. Saidova M. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirish mazmuni // Respublika ilmiy amaliy konfrensiyasi. Uzluksiz ta'lim tizimida ta'lim mazmunini yanada takomillashtirish istiqbollari: muammo va yechimlar. – Buxoro, 2022. – 163–167 b.
6. Курбанбаева, М. (2023). Важность формирования навыков самостоятельного мышления при подготовке конкурентоспособных кадров. Тамaddun nuri jurnali, 5(44), 95-96.

